

**ATOYI G`AZALLARINING BADIY XUSUSIYATLARI**

*AndDTI akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi  
Ra`noxon Satimova*

**Annotatsiya:** Atoyining lirik merosida g`azal janri o`ziga xos o`rin egallagan bo`lib, ularning qiymati beqiyosdir. Atoy mumtoz she`riyatimizga alohida olingan inson ruhiyati tasvirini kirita bilgan shoirdir. Bugungi kunda ommaviy madaniyat xuruji dunyoni egallab olgan bir vaqtda mumtoz adabiyotimiz durdonalarini o`rganish va ularni ilmiy tahlil etish dolzarb mavzulardan biriga aylanganligini zo`r mamnuniyat bilan ta`kidlash lozim bo`ladi.

**Kalit so`zlar:** „Ato”, Movarounnahr, „Begim”, Mus'haf, Turbat

XV asrning mashhur shoirlaridan, Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri Atoyidir. Uning she'rlari o'z davrida Movarounnahr hamda Xurosonda shuhrat topganligi ma'lum. Buyuk Navoiy „Majolis un-nafois” („Nafis majlislar”) kitobida uning she'rlariga yuqori baho bergan.

Atoyining hayot yo'li, shaxsiyati haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. U asli Ahmad Yassaviylar nasabiga mansub bo'lgan Ismoil Ota avlodlaridan. Alisher Navoiyning ma'lumot berishicha u Balxda yashagan. Mirzo Ulug'bek saroyida xizmat qilgan. Hozirgi Qozog'istonning Turbat qishlog'ida unga nisbat berilgan qabr bor. Chamasi, uning hayoti Sayram, Balx, Samarqand, Hirot shaharlarida kechgan. Taxallusini mashhur shayx ota-bobolariga ishora qilib, „Ato” („Ota”) deb olgan. Bizga bir devori yetib kelgan bo'lib, u 260 g'azalni o'z ichiga oladi. G'azallari — zamondoshlarinikiga qaraganda sodda. O'sha vaqtlarda she'riyatda chiyratmay, to`g`ri, oddiy ifoda yo`sinida foydalanishni „turkona” deganlar. Navoiy Atoyini „turkona aytur edi” deb ta`riflaydi.

Atoy o`z she'rlarida nozik xayol, sinchkov nigoh, baland did egasi ekanligini namoyish etadi. Go'zal, esda qoladigan o'xshatishlar, kutilmagan mubolag'ali tasvirlar yaratadi. Bir g'azalida go'zal yor xokisor oshiqning yuziga oyoq bosgan ekan, oyog'i og'ribdi, „yuzing buncha bo'yradek dag'al bo'lmasa” deb nozlanibdi. „Bo`yra” - qamishdan sholchaga o'xshatib to'qiladigari bir ashyo. U gilam tagidan to'shaladi, tom ustiga yopiladi. Yorning oyog'i shu qadar nozik va go'zal ekanki, uning oldida oshiqning yuzi bo'yraga o'xsharkan. Ikkinchi bir she'rda esa, yorini sog'ingan oshiqning ko'zidan yosh emas daryo oqayotgani, u kipriklaridan sol yasab, mana shu daryoda suzayotgani manzarasi chiziladi. Shoir yorini ulug'lovchi, fidoyilikni ko'rsatuvchi betakror satrlar bitadi. Masalan, „Begim” radifli she'ridan kipriklarini supurgi (jorib”), yuzini xokandoz qilishga tayyor, yor xizmatiga olinsa bo'lgan. Hatto

yor u yoqda tursin, uning farroshli „qul“likka qabul qilsa ham o'zini baxtli hisoblaydi. Atoyi yor obrazini mana shunday yuksaklikka ko'taradi.

She'rlari ko'proq ishq-muhabbat haqida. Shoir yorning qaddi-qomatini, yuzi, ko'zi, qoshi, sochi, kipriklarini, og'zi, labi, xoli kabilarni ta'rif-tavsif etadi. Ularni sifatlash orqali yorning go'zallikda tengsiz timsolini chizadi. Har daqiqada o'zining ma'shuqaga bo'lgan sevgi-sadoqatini izhor etib boradi. O'zini „qul“, yorni „shoh“ ko'rsatish orqali bir tomondan, go'zal yorga sevgi-sadoqatini bildirsa, ikkinchi tomondan, bu sevgining tengsizligini („shoh“—„qul“) ta'kidlab turadi. Bu ma'shuqa go'zallikda deyarli hamisha nuqsonsiz, har jihatdan mukammal bir siymo sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ko'pincha, uning jamoli Alloh jamolini esga tushiradi. Shoir goho „husn“ni „Mushaf“ („Qur'on“)ga, „meng“ („xol“)ni oyatga o'xshatib, yor go'zalligini tasvirlashdan maqsad Alloh ekanligiga ishora ham qiladi. Shunday o'rinlarda shoir ishqining ilohiy ekanligi anglashiladi:

*Ey mushafi husnung'a menging nuqtasi oyat,  
Islom eliga bo'ldi yuzing nuri hidoyat.*

Baytda yor yuzi Mus'haf — Qur'onga o'xshatilgan. Buning zamirida muqaddaslikka ishora bor. Oyat Qur'on suralarining tugal ma'noli jumlasini tugagan jumlagacha nuqta qo'yiladi. Shoir yorning yuzidagi meng (xol)ni ayni shu ma'noda qo'llamoqda. Keyingi baytda ma'shuqa hur va malaklarga o'xshatiladi va g'azalda dunyoviy ruh kuchayadi. Shoirning mahorati shundaki, ilohiy tushunchalar qo'llanishi bilan dunyoviy, dunyoviy tushunchalar keltirilishi orqali ilohiy ma'no anglatiladi:

*Sen hurmusen yo malak, ey turfayi davron,  
Ne husnungga bor hadde-yu, ne lutfunga g'oyat.*

Ha, ma'shuqa go'zalligiga chek-u chegara yo'q. Hatto, ko'plab qissalarda go'zallik timsoli sifatida tasvirlangan Yusuf ham unga teng kelolmaydi:

*Gar husn budurkim, sanga bor, kes bu tilimni,  
Yusuf so'zidin qilsam agar zarra hikoyat.*

Yorning zulfi ham, ko'zi ham go'zal. Ammo ular oshiq joniga qasd qiladi, uni qiynaydi, o'rtaydi. Shu holat Atoyi tomonidan quyidagicha ifodalangan:

*Zulfung madidin qiladur jong'a ko'zung qasd,  
Chin lashkari kofirg'a qilur ore himoyat.*

Bu o`rinda Chin lashkari va kofirning eslatilishi tasodifiy emas. Odatda, Chiqish she'riyatida zulf Chin lashkariga, ko`z esa kofirga o`xshatiladi. Shoir shu an'anadan foydalanib, tasvir go`zalligiga erishmoqda.

Xususan, Atoyining lirik merosida g`azal janri o`ziga xos o`rin egallagan bo`lib, ularning qiymati beqiyosdir. Atoyi mumtoz she'riyatimizga alohida olingan inson ruhiyati tasvirini kirita bilgan shoirdir.

Oshiq yor go'zalligidan, uning o'zidan shu darajada ruh-lanadiki, hatto joni chiqsa, halok bo'lsa ham yor labidan bir najot bo'lsa, u yana tirila oladi. Keyingi ikki bayt ana shu haqda. G'azal Qur'on nomini eslash bilan boshlangan edi. G'azal davomida Yusuf, Iso nomlarining keltirilishi shoir ko'zda tutgan mantiqning yuzaga chiqishiga imkon bergan.

Shoirning qator she'rlarida hayotiy yor, dunyoviy ishq, ya'ni insonning insonga bo'lgan muhabbati ko'zda tutilganini ham ko'rish mumkin.

*Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur,  
G'oyati nozikligindin suv bila yutsa bo'lur*

baytida nozik nihol qiz tasvir etilayotganiga shubha yo'q. She'rda ma'shuqa shu qadar nozik, shunchalar go'zal qiz sifatida tasvirlanadiki, go'yo uni bir qoshiq suv bilan yutib yuborish mumkinday. Atoyi xalq iboralarini g'oyat yaxshi biladi va undan o'rinli foydalana oladi. G'azalning maqtasida ham shu hoi sezilib turibdi. Qizning go'zalligi, tiniqligi, pokizaligi shunchalikki, u qo'lini suvda yuvib tozalamaydi, balki qo'lini yuvib suvni poklaydi:

*Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suvda,  
Balki suvni pok bo'lsin deb iligi birla yur.*

Oshiq suv yoqasida paridek o'ltirgan tengsiz go'zalga qarab, hayrat bilan „suv qizi“, ya'ni suv parisining „goh-goh ko'zga ko'rinishi“ga imon keltiradi. G'azal maqta'sida shoir o'zining ibodati ham yor husnini ko'rishning tavallosidan iboratligini bildiradi. Atoyining ushbu g'azaligacha yor ko'ngliga g'ulg'ula solgan sanam timsoli bu qadar jonli, ta'sirchan va ayni vaqtda ilohiy yo'sinda tasvirlanmagan edi.

Shoirning badiiy yetuk she'rlaridan biri „**Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizardi gul uyottin anjumanda**“ matla'li g'azalidir. Birinchi baytda ajoyib bir manzara chizilgan: shoir gulzorga kiribdi. Anvoiy gullar charx urib, ochilib yotibdi. Yo'q-yo'q, bu shunchaki gulzor emas, gullarning anjumani—yig'ilishi, har bir gul o'zini namoyish etadi, ko`z-ko'z qiladi. Shoir ushbu anjumanda yorning yuzini ta'riflabdi. Gullar xijolatdan—uyatdan qizarib ketibdi. Aslida ular qizil emas edilar, ma'shuqaga

qaraganda xunukroq ekanliklaridan uyalib qizardilar. She'rda qizarishning o'z va ko'chma ma'nolaridan samarali foydalanilgan. Ikkinchidan, gulga insoniy sifatlar beriladi, shaxslantiriladi. Chunonchi, gulzorning anjumanga o'xshatilishi, gulning uyatdan qizarishi kabi. Bu tashxis san'atiga Ikkinchi bayt yorning labi va og'zi ta'rifida:

*Tamanno qilg`ali la`lingni ko`nglum,  
Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda.*

Bu baytda ko`nglim sening la'li labingni orzu qilgan edi, istab topolmadi, degan mazmun ifodalangan. Yorning labi qon kabi qip-qizil bo'lgani uchun ham qizil qimmatbaho tosh – la'lga o'xshatiladi. Chiqishda o'ymoqdakkina, kichik o'gizli qizlar go'zal hisoblanadi.

Atoyining **“Hajringda bigim, oh degumdur dag`i o`lgum”** deb boshlanuvchi g`azali ham oshiqona bo`lib, suyuklisiga muhabbatni olamdagi hamma narsadan ortiq qo'yadigan oshiq holati ifoda etilgan. Shoir uchun ma'shuqa shunchaki qiz emas, balki iymon hamdir. Negaki, lirik qahramon: **“Iymonim o`shal moh dag`i ulgum”** deydi.

Oshiqning muhabbati shu qadar teran va azaliki, u yor kuyida o`lib ketsa ham uning ruhi qiyomatga qadar ma'shuqaga hamroh bo'ladi.

Atoyi ko`ngil nolishlari, ruh to'lg'onishlari, xalq istiroblari tasvirini turkiy she'riyatga go'zal va ta'sirchan yo`sinda olib kirgan shoirdir.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asardan o'rin olgan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'likdigi sanaladi.

Ma'naviy san'atlardan "Mubolag'a" arab tilida kattalashtirish, kichraytirish ma'nosini bildirib, badiiy timsol yoki harakatni bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir. Chunonchi, Atoyining

*Labing shavqinda har xatkim bitirmen,  
O`qurda qon tomar maktublardin.*

baytida bu san'at yorqin ifodasini topgan

Tashbih - Sharq adabiyotidakeng qo'llanilgan san'atlardan biri bo'lib, o'xshatish ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Masalan, Atoyining

*Ey minglari mushku, engi lola, ko`zi ohu,  
Zulfiing g`amida tutti ko`ngulni qora qayg`u.*

baytida ma'shuqaning yuzidagi xoli atirga, yuzi lolaga, ko'zi ohunikiga qiyoslanmoqda.

*Soching sumbul, qading sarvi sanuvbar  
Ko`zung nargiz, yanog`ing arg`uvondir.*

Bu baytda ma'shuqa timsolida go'zal malik qiyofasi chizilmoqda.

Husni ta'lil arabcha chiroyli dalillash ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror xodisaga shoirona biror san'at ko'rsatish san'ati shu nom bilan ataladi.

*Bir to`yak o`rgaymumen deb tal`atingni to`lin oy  
Tunglukungda o`lturur to subh mendek termulub.  
Qomating sarvin agar shamshodi miskin ko`rmasa,  
Tutmagay erdi uyottin beshai Mozandaron.  
Ko`r hayoli noziginkim, o`ziga yog`liq atab,  
Goh og`zingni upar, gohi ilikingni katon.*

Keltirilgan baytlar mazmuniga diqqa qilsak, betakror badiiy lavhalar ifodalanganini ko'ramiz, ularning har biri husnita'lil san'atining go'zal namunalari. Lafzi san'atlar.

Tajviz. (yoki jinoz) she'r baytida ma'no harakatidan har xil ammo shakli bir xil. Yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so'zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash san'atidir. Atoyining

*Boqar ohulayin har yon o`shal ikki qaro ko`zlar,  
Hadangi hamzasin otmog` uchun go`yo qaro ko`zlar.*

Misralarida qoro ko`zlar jummalari ikki xil ma'nodo ishlatiladi.

Ishtiyoq. (So`zdan so`zni ayratmoq) she'r baytlarida o`zakdosh so`zlarni qo'llash san'atidir.

*Uzun sochingdin uzmasmen ko`ngulni  
Ayog`ing qanda bo`lsa boshim anda.*

Oltinchi baytda “uzun” va “uzmasmen” so`zlaridagi o`zakdosh uz takrorida ham hislat bor. Buni ishtiyoq san'ati deydi. Bu baytda tazot san'ati ham mavjud bo`lib, bosh va oyoq o`rtasida qarshilantirish mavjuddir.

Atoyi lirikasida samimiy tuyg`ular yuksak san'atkorlik bilan ko`rsatilgan va shuning uchun ham shoir g'azallari hanuzgacha barcha adabiyot muhlislari, mumtoz adabiyot muhoblari va she'rxonlar qalbiga zo`r ta'sir etib kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda ommaviy madaniyat xuruji dunyoni egallab olgan bir vaqtda mumtoz adabiyotimiz durdonalarini o`rganish va ularni ilmiy tahlil etish dolzarb mavzulardan biriga aylanganligini zo`r mamnuniyat bilan ta'kidlash lozim bo'ladi

#### **Adabiyotlari:**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 17-  
tom. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Fan, 2001.– 520 b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 13-  
tom. Majolis un-nafois. –Toshkent: Fan, 1997. – 284 b.
3. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1976.  
– 664 b.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. V tomlik. 1-tom.– Toshkent: Fan, 1977
5. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – Toshkent: Fan, 1995. – 156 b.
6. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998. –  
16b.